

EVFEMIZMLARNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI

Sharifjonova Sarvinoz
NamDU 2-bosqich magistr

Bolalar —kelajagimiz bunyodkori. Ularning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor berish biz kabi ustozlarning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Bolalar nutqiy muloqot jarayonida atrofidagi shaxslarning nutqiy muomalasidan o'rnak olishadi. Oddiy misol tariqasida aytishimiz mumkinki, ona va bola o'rtasidagi nutqiy kommunikatsiya bolaning nutqiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Bola bilan eng ko'p muloqot qiluvchi shaxs bu onadir. Maktabgacha va maktab ta'limida tahsil olayotgan bolalarning nutqini tahlil qiladigan bo'lsak, ularni yosh xususiyatiga ko'ra farqlashimiz mumkin, shuningdek oilaviy muhitning ta'siri ham yo'q emas.

Bolalar nutqini pragmatik aspektida M.Qurbonova "O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari" mavzusida dissertatsiyasida tadqiq qilgan. Bundan tashqari uning "O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi" mavzusidagi monografiyasi ham bor. Monografiyada bolalar nutqidagi leksik birliklarning qo'llanish o'rnini va doirasi tadqiq qilingan.

Evfemizmlar jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida keng tadqiq qilingan leksik birliklardan biri hisoblanadi. Jumladan jahon tilshunosligida J.Vandries, N.A.Samaylovich, A.A.Reformatskiy, G.G.Musabayev, S.S.Shirikov, V.P.Drabakova, A.Axmetovlar, o'zbek tilshunoslaridan A.Omonturdiyev, N.Ismatullayev, O.T.O'rinova, T.O'rinovlar o'zbek tildagi evfemizmlarni tadqiq qilishgan.

A.Hojiev tomonidan yaratilgan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmgacha quyidagicha izoh beriladi: "Evfemiz (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa- hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Mas., ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash."

Evfemik birliklar semantik jihatdan turli xil tarzda tasnif qilingan. Masalan, urf-odatni ifodalovchi evfemik birliklar, kasbga oid evfemik birliklar, ijtimoiy munosabatlarga oid evfemik birliklar kabi. Evfemizmlar tuzilishiga ko'ra ham turlarga ajratilgan. Ularni yosh xususiyatiga ko'ra ham farqlashimiz mumkin. Katta yoshdagi insonlar va bolalar nutqiga xos evfemizmlar ma'noviy jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rta tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "Pragmatika" terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayo-ni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika. aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Mas, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa hislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda qam ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatikada g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimai, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Bolalar nutqida qo'llaniladigan evfemizmlar mazmun jihatdan xabar qilish, so'roq, taajjub, murojaat kabi ma'nolar anglashilib turadi. Nutqiy aktlar orqali biz kishilarning kommunikativ maqsadini anglaymiz.

Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir.

Bolalardagi nutqiy aktlarni namoyon bo'lishida bolaning so'z boyligini ham hisobga olish zarur. Ulardagi so'z boyligining ortishi nutqiy muloqotdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga yordam beradi.

Bolalar nutqiy madaniyati asosan oilada rivojlanadi. Chunki katta yoshli insonlarning nutqidagi so'zlar bolalar nutqida aks etadi. Maktab yoshidagi bolalar qo'ni-qo'shnilarining nomini oila a'zolari bilan bir xil tarzda ataydi. Ularning ismi bilan yoki qo'shni deb atash odobsizlik hisoblanadi. Bu nutqiy madaniyatga zid hodisadir. Bolalar nutqiga oid evfemizmlarni nutqiy muloqotda mavqeyini aniqlash lozim. Avvalo bolalar nutqining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilib so'ngra mana shu pragmatik xususiyatlarda evfemizmlarning ishtirokini o'rganamiz.

Tilshunos J. Ostin nutqiy aktlarni quyidagi turlarga ajratadi.

1. Lokutiv akt;
2. Illokutiv akt;
3. Perlokutiv akt.

M. Hakimov hamda M. Gaziyevalarning "Pragmalingvistika asoslari" asarida nutqiy aktlarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Lokutiv akt;
2. Propozitsional akt;
3. Illokutiv akt;
4. Perlokutiv akt.

Ushbu nutqiy aktlarda so'zlovchining kommunikativ maqsadi amalga oshiradi. Bolalar nutqidan olingan parcha orqali nutqiy aktlarni tahlil qilishimiz mumkin. Bolalar nutqida lokutiv aktlar har doim ham to'g'ri yuzaga chiqavermaydi. Chunki kichik yoshda bo'lgan bolalarning nutqidagi leksik birliklarni talaffuz qilishda kamchiliklar uchrab turadi. Illokutivdan akt esa so'zlovchi nutqida muloqotdan maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.

– Bugun man tug'ildim, – dedi u qop-qorq ko'zarini pirpiratib jilmayarkan.

Iya, shunaqami, shoshmay tur-chi, hozir...

Uydan bir hovuch shirinlik olib chiqdim.

– Mana, o'rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

– Men shirinlik yemayman. Tishim tushgan. Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi:

– Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug'ilganimda.

– Qizcha o'ylanib qoldi. – Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak...

Qo'limdan shirinliklar tushib ketdi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Qarz" hikoyasidan olingan parcha. Katta yoshli shaxs va bola o'rtasidagi nutqning pragmatik xususiyatlari quyidagicha:

Yetti yoshli qizchaning nutqida lokutiv akt yuzaga keladi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi, ammo Baxti va Baho ismini yarim talaffuz qilinishi lokutiv aktning buzilishiga olib kelmaydi. Bolalarga xos bo'lgan erkalik va do'stona munosabatlarning bir ko'rinishidir.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.

– Bugun man tug'ildim, – dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.

Qizchaning yasanib kiyingani uning mehmondorchilikka ketayotgani yoki biron bir tadbir borligini anglatadi. "Bugun man tug'ildim" gapida esa qizchaning nutqiy hozirjavobligini anglashimiz mumkin. So'zlovchi tinglovchi bilan bo'lgan muloqotida perlkutiv aktning yuzaga kelganligi ko'rishimiz mumkin. Tinglovchi so'zlovchining fikriga o'z munosabatini bildirishi perlkutiv aktga misol bo'la oladi.

Bolalar nutqida o'zidan katta yoki tengqurlariga nisbatan oila a'zolari kabi murojaat etish o'zbek oilalariga xos. Ko'cha-ko'yda, avtomashinalarda bolalar begona kishilarga nisbatan opa, aka, amaki, xola, ayajon, tog'ajon, buvijon buvajon, bobo, og'ayni, do'stim kabi so'zlardan foydalaniladi. Yuqoridagi matnda ham poshsha buvi qo'shni ayolga nisbatan ishlatilgan. Poshsha buvi Nilufarga qo'shni, ammo qon-qarindosh emas, lekin qo'shniga nisbatan buvi deb murojaat qilinadi. Hoy, ey, huy kabi undovlar va qariya, kampir, chol, boboy, xotin kabi so'zlar o'rnida qo'llaniladi. Muloqot jarayonida nutqiy madaniyatga erishish uchun ushbu so'zlar evfemizmlar vazifasini bajaradi.

Bolalar bir-birlari bilan qilgan muloqotdan ko'ra katta yoshli insonlar bilan qilgan muloqotida ko'proq evfemik birliklardan foydalanadi.

Evfemizmlar mavzusiga murojaat qilinganda, nafaqat evfemik iboralar, balki shu evfemizmgа ehtiyoj tug'dirgan ijtimoiy-madaniy va til sharoiti ham tadqiq etiladi. O'zbek tilidagi evfemizmlar ham xalqning milliy madaniyati bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi. Muloqotdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun hurmat tamoyiliga murojaat qilinadi. Evfemizmlarning o'rniga disfemizmlardan foydalansak, nutqimizda mavjud bo'lgan kommunikativ sifatlardan biri nutqning jo'yaliligi buziladi. Har qanday nutq ifodalamoqchi bo'lgan axborotning mazmuni, tinglovchi yoki o'quvchining Yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og'zaki ekanligi, nutq vaziyatiga to'la mos kelishi zarur, jo'yalilik sifati shu asosda voqelanadi.

O'rta yoshli kishilar muloqot faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, ular nutqida ishlatilayotgan evfemik birliklar iltimos, maslahat, darak mazmunidagi nutqiy aktlar hisoblanadi. Ular gender xususiyatiga ko'ra ham farqlanadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, so'zlovchi tinglovchiga nisbatan shunchaki axborot uzatmaydi. Berilayotgan axborot mazmunida so'zlovchining maqsadi, shuningdek milliy madaniy qarashlar yuzaga chiqadi. Kommunikatsiya jarayonidan shaxslarning e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi, aqliy va ruhiy holatini anglab olishimiz mumkin. Tilshunoslikda dastlab insonlar nutqini linvopragmatik jihatdan tahlil qilindi, so'ng uni sotsiopragmatik tahlil asosida o'rganish va ushbu tahlilni yuzaga chiqaruvchi lingvistik birliklarni tadqiq qilish tilshunoslikning dolzarb masalasiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хожиев А. Тилшунос тэрминларининг изохли лугати. Тошкент. 131-б
2. О'.Нoшимов О'zbeklar:hikoyalar,o'ylar,hajviyalar. Toshkent—2007. 39-b
3. Омонтурдиев А. Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. Тошкент —2006. 3-б